

## **O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI**

**Baxtiyorova Sevinch Doniyor qizi**

**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi**

E-mail:sevinchxanumbaxtiyorova@gmail.com

## **O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola O‘zbek tilining bugungi kundagi dunyodagi o‘rni va qadim tarixdan beri bizga sezilmasdan yemirilib kelgan tilimizning inqirozga yuz tutmasligi haqida.

**Kalit so‘zlar:** tarix, eski turkiy til, hozirgi o‘zbek adabiy tili, rivojlanish, inqiroz, Navoiy, yangi so‘zlar, yangi davr.

O‘zbek tili demasakda, qadimgi turkiy til haqida eshitganmiz. Tilizmining qadim tarixga egaligini adabiy merosimizdan ham anglab yetishimiz mumkin. Necha ming yillik tarix natijasida O‘zbek tili shakllandi, taraqqiy etdi va yuksaldi, biroq ushbu jumalarga zid ravishda bir-ikki xulosalarimni yozib o‘tmoqchiman. O‘rganishlarimiz natijasida shuni anglab yetdimki, o‘zbek tilining taraqqiyoti deb qaragan davrlarda ham o‘z tilimizni chin ma’noda yo‘qotib borganmiz. Negaki, Alisher Navoiyni ham Zahiriddin Boburni ham ijodini asl ma’noda o‘qib tahlil qila olmaymiz. Har bir davr uchun tarjiman izlaymiz. Xattoki, Navoiydan oldin ijod qilgan shoirlar ham o‘z davri uchun tarjimonga extiyoj sezishgan bu ayni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish emas, balki o‘z tilidan o‘z tiliga tarjima sifatida ta’kidlamoqdaman. Navoiy davrida boshqa bir so‘zlar, undan oldin ijod etgan shoirlarimizda ham umuman boshqa bir so‘zlar, biroq ma’nosi bir so‘zni ifodalagan. Yaqin tarix Ogahiy, Furqat desak ham ularni tahlil qilishga hatto kuchimiz yetmaydi, aynan Alisher Navoiy yoki Lutfiy asarlarini emas oddiy jadidlarni ham adabiyotidagi so‘zlarni mag‘zini chaqish murakkab. Buning asl sababi nima? Aynan o‘sha davrlar adabiyotiga asrlar yoki yillar ta’sirimi?

Buning oqibatini hech kim o‘ylab ko‘rgani yo‘q ya’ni har bir davr uchun tarjimon istasak, o‘z tilizda yozilgan durdona asarlarni o‘qib tahlil qila olmasak

xatto tarjimon ham topa olmaymiz. Natijada o‘zbek tilini bilimsizligimizning qurboni qilamiz va tilimiz muomaladan umuman chiqib ketadi.

Negaki, ishlatilmaydigan va eng muhimi ma’nosini tushunmaydigan so‘zlarni, ibora va gaplarni bizga keragi bo‘lmay qoladi.

Natijada esa na lug‘atlarning qadimiy asar va qo‘lyozmalarning ahamiyati qolmaydi. Hech bir o‘zbek farzandi qiziqish va shavq bilan eski davr adabiyotlarini o‘qimaydi. Sodda so‘zlarning borligi yaxshi, biroq soddalashgan sari so‘zlarning ma’nosi sustlashadi.

Xalqaro maydonda o‘zbek tilini erkin muloqotini ta’minlash va uni o‘rganuvchilarning sonini oshirish va faqatgina bizning tilimizni rivoji uchun xizmat qiladi. Buni yorqin misoli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida o‘zbek tilida nutq so‘zladi. Bu nuqt aynan o‘zbek tilida so‘zlangani bilan faxr tuyg‘usini uyg‘otadi.

“Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zladi. O‘zbekiston prezidenti Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etdi. Shavkat Mirziyoyev mintaqadagi muammolarga e’tibor qaratish kerakligini ta’kidlab, mamlakat Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilishini ta’kidladi”

Har qanday holatda ham yangiliklar yaxshi, kundan kun yangi texnologiyalar, gajetlar va yangi sohalar kirib kelmoqda. Vaholanki ularning bizga o‘zlashishi jarayoni mavjud. Aynan mana shu paytda biz yangi so‘zni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilamiz, buning natijasida esa aynan tilimiz aziyat chekadi. Eskiliklar deb qarab uni unutamiz. Bunga oddiy hol emas, balki fojea sifatida qarashimiz kerak. Agar mana shu vaziyatlarni davom ettirsak, tilimizga muqobilini qabul qilmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri chetdan o‘zlashtiraversak yaqin 10 yillikda ham lotin yozuviga asoslangan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga ham tarjimon izlab qolishimiz tabiiy hol. Asarning ma’nosini tushunish u yoqda tursin, so‘zni so‘zdan farqlay olmaymiz. Yangi davr adabiyotini gapiramiz desak u ham jar yoqasida mumtoz adabiyotni umuman gapirmasak ham bo‘ladi.

Mana shunday vaziyatlarda yana bir qo‘pl tadbir bu – “Alifboga o‘zgartirish kiritish kerak” – degan taklifning ilgari surilishi. Alifbodagi harflarni o‘zgartirganimiz bilan hech kim kitobsevar bo‘lmaydi yoki qadim tarix asarlarini o‘qimaydi yoki mumtoz adabiyotning tahlilini bilib qolmaydi. Biz e’tiborni ko‘proq so‘zni so‘zdan farqlashga hamda uni mukammal tahlil etishga, qolaversa tilimizni saqlab qolishga qaratishimiz lozimdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, til bu millatning ko‘zgusi hisoblanadi. Qaysi bir millat o‘zini hurmat qilsa, o‘z tilini asrab-avaylashi zarurdir. Bizning ona tilimizda yevropada kabi ko‘p inson muloqot jarayonida foydalanmaydi, bu esa tilimizga nisbatan yemirilishini ta’minlab berishi mumkin. Mana shunaqa ofatlardan o‘z ona tilimizni avaylashimiz kerak.